**Siqilgan tabiiy gaz yetkazib berish bo'yicha**

**1- sonli shartnoma**

Fargona tumani "05" 01. 2022-yil.

Bir tomondan "SNG GAZ SERVIS" MCHJ, kelgusida "ETKAZIB BERUVCHI" deb nomlanuvchi o'z Nizomiga asosan ish yurituvchi raxbar SH.Pazilov ikkinchi tomondan Fargona tumani SEO va JS kelgusida "ISTE'MOLCHI" deb nomlanuvchi o'z nizomiga asosan ish yurituvchi raxbar R.A.Xojikurbonov tuzdilar ushbu shartnomani shu xaqdakim:

## 1.SHARTNOMANING MAQSADI.

1.1. "ETKAZIB BERUVCHI" o'zida mavjud mahsulotni yetkazib berish, "ISTE'MOLCHI" esa yetkazib berilgan mahsulot uchun o'z vaktida to'lovni amalga oshirish majburiyatini oladi:

| maxsulot nomi | o'lchov birligi | 2022-yil davomida umumiy soni | jumladan choraklar buyicha soni | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | | | 1 | 2 | 3 | 4 |
| Siqilgan tabiiy gaz | kub.m | 3600 | 900 | 900 | 900 | 900 |
| | | | | | | |

1.2. "ISTE'MOLCHI" ning avtomobilini siqilgan gaz bilan to'ldirish "ETKAZIB BERUVCHI"ning avtomobillarga gaz to'ldiruvchi kompressor sanktsiyasi (AGTKSH) orkali amalga oshiriladi.

1.3. Yetkazib berilgan kun deb "ISTE'MOLCHI" ning avtomobilini siqilgan gaz bilan to'ldirilgan kun xisoblanadi.

## 2.TO'LOV SHARTLARI.

2.1. 1 000 kub.m. siqilgan tabiiy gaz uchun to'lov 2500 ( Ikki ming so'm) so'm qilib belgilandi. Shartnoma tuzish vaqtida shartnomaning umumiy qiymati 9 000 000 ( to'qqiz million ) so'm ushbu summa xom-ashyo, yoqilgi -energetik resurslarni narxini o'zgarishi, hamda me'yoriy dalolatnoma va O'zbekiston Respublikasi hukumatining qarorlarini o'zgarishi barobarida o'zgarishi mumkin.

2.2. Siqilgan tabiiy gaz uchun to'lov, qonunda ko'rsatilgan shaklda, bank qoidalariga rioya qilgan holda, yetkazib berilayotgan kunni deklaratsiyalangan narxlarini qayd qilish reestriga asosan amalga oshiriladi.

2.3. Siqilgan gaz uchun to'lov,qonunda qo'rsatilgan shaklda, bank qoidalariga rioya qilgan holda, yetkazib berilayotgan kunni deklaratsiyalangan narxlarini qayd qilish reestriga asosan amalga oshiriladi.

2.3. Siqilgan gaz tuldirish 100% li oldindan to'lov "ETKAZIB BERUVCHI" ning hisob raqamiga o'tkazilgandan keyin amalga oshiriladi.

## 3. TOMONLARNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI.

3.1. "ISTE'MOLCHI" GBM (gaz balon moslama)li avtomashinani ishlayotgan (ekspluatatsiya) vaqtida texnik holatiga, texnika xavfsizligiga to'lik javobgardir.

3.2. "ISTE'MOLCHI" majburiyati: "ISTE'MOLCHI"ning gaz to'ldirish uchun ATGKSHga kelgan transport vositasida quyidagi me'yoriy hujjatlar bo'lishi shart:

A) Gaz baloni texnik sinovdan o'tkanligi hakida DALOLATNOMA;

B) Haydovchi gaz balonli avtomobilni boshqarishga o'qiganligi haqida guvoxnoma;

V) Avtomashina texnik pasportida YHX organlari tomonidan gaz moslamasi o'rnatilganligi to'grisidagi belgi.

G) Avtomashina texnik pasportida texnik ko'rikdan o'tganligi haqida belgi.

3.3. "ETKAZIB BERUVCHI" va "ISTE'MOLCHI" siqilgan gazni, gaz sig'imini o'rtacha kunlik me'yori darajasida bir maromda olish va berish majburiyatini oladi. "ISTE'MOLCHI" siqilgan gazni olishi bo'yicha barcha o'zgarishlar to'g'risida "ETKAZIB BERUVCHI"ni chorak boshlanmasidan 15-kun muddat oldin yozma ravishda xabar qiladi. "ETKAZIB BERUVCHI" ishlab chiqarish jarayonida AGTKSHni joriy ta'mir uchun to'xtatgan vaqtda "ISTE'MOLCHI"ni 3-kun oldin, kapital ta'mir uchun to'xtatishdan oldin ish boshlanmasdan 15-kun oldin ogoxlantiradi.

3.4. "ETKAZIB BERUVCHI" quyidagi xuquqlarga ega:

A) Avtomashinani gazbalonni uskunasini ishlashini sozligini, o'lchov-nazorat asboblari va yopqich armaturasini tekshirish.

B) "ISTE'MOLCHI" gaz to'ldirish shaxobchasi reglamenti qoidalariga bo'y sunmagan va shartnoma shartlarini buzgan taqdirda siqilgan gaz to'ldirishni to'xtatish.

## 4.GAZNI HISOBGA OLISH VA TO'LOV TARTIBI.

4.1. "ISTE'MOLCHI"ga beriladigan siqilgan tabiiy gaz miqdori "ETKAZIB BERUVCHI"ning o'lchov asboblarida, "(AGTKSH) orkali "ISTE'MOLCHI"ga beriladigan gaz mikdori jadvali bilan kelishilgan holda "Uzbekneftgaz" MXK tomonidan 28.11.1995 yili tasdiqlangan (AGTKSH) dan berilayotgan gaz mikdorini o'lchash, xisob-kitob qilish RD Uz 51-034-94 uslubiga" asosan xamda Davlatstandart ko'mitasi tomonidan tasdiqlangan (13.01.1996 yildagi rng.№ 418) va 12.04.1996 yili "ISTE'MOLCHI"lar bilan (AGTKSH) orkali berilgan gaz uchun xisob-kitob kilish ko'llanmasiga asosan aniqlanadi.

## 5. TOMONLARNI MULKIY JAVOBGARLIGI

5.1. Siqilgan tabiiy gazni me'yoridan ortik olinganda qo'shimcha shartnoma tuziladi.

5.2. "ETKAZIB BERUVCHI" va "ISTE'MOLCHI" quyidagi hollarda beriladigan gaz miqdorini kamaytirishi mumkin va buning uchun javobgar bo'lmaydi:

A) AGTKSHga tabiiy gazni yetkazib beruvchilar texnologik jarayonida yuzaga keladigan avariya holatida, magistral gaz quvirlarida, shahar gaz, elektr tarmoklarida oldindan hisobga olib bo'lmaydigan majburiyatlar paydo bo'lganda.

B) Yong'in, yer qimirlash va tabiiy ofatlar bo'lganda.

V) Magistral gaz quvirlarida navbatdagi ta'mirlash ishlari olib borilganda, shahar gaz, elektr tarmoklarida sinov ishlari olib borilganda hamda svarka ishlari olib borilganda.

5.3. Tomonlar ushbu shartnoma shartlariga rioya qilmaganda yoki to'lik bajarmsligi oqibatida kelib chiqadigan kelishmovchiliklar O'zbekiston Respublikasi qonunlari bo'yicha hal kilinadi.

## 6. SHARTNOMANI AMAL QILISH MUDDATI.

6.1. Ushbu shartnoma tomonlar tarafidan imzolangan kundan boshlab 2022 yil 31-dekabr kuniga qadar amal qiladi.

6.2. Shartnoma ikki nusxada tuzilgan bo'lib, bir nusxasi "ETKAZIB BERUVCHI" da ikkinchi nusxasi "ISTE'MOLCHI" da saqlanadi. Ushbu shartnomada ko'zda tutilmagan masalalar yuzasidan tomonlar hozirda amaldagi qonunlar asosida ish olib boradi.

A) "ISTE'MOLCHI"lar YHX organlari tomonidan ro'yxatdan o'tkazilgan avtomashinalarni gaz sarfi miqdori va markasi ko'rsatilgan xisob kitobini.

B) "ISTE'MOLCHI" lar balansidagi avtomobillar rusumi va davlat belgisi ko'rsatilgan ro'yxatini taqdim etadi.

## 7. TOMONLARNING MANZILLARI VA REKVIZITLARI

| «IJROCHI» | «BUYURTMACHI» |
|---|---|
| SNG GAZ SERVIS MCHJ | |
| Фарғона тумани Водил | Fargona tuman SEO va JS<br>Fargona tuman Vodil kishlogi |
| X/R 20208000700781985001 | Tel faks 353-18-08 SHXR<br>400322860302337074110054002 |
| MFO 01168 INN 304899215 | INN 200196749 OKONX 91531 |
| OKONX 11232 | Moliya vazrligi gaznachiligi |
| | SHXR 23402000300100001010 |
| Tel: | Markaziy bank Toshkent shaxar BBXKKM |
| Raxbar ________ Падилов Ш. (F.I.O.) | MFO 00014 INN 201122919 |
| | Boshlig'i R.A.Xojikurbonov |

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI FARG'ONA VILOYATI FARG'ONA TUMANI MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYATI SNG GAZ SERVICE

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG'LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI SANITARIYA-EPIDEMIOLOGIK OSOYISHTALIK VA JAMOAT SALOMATLIGI FARG'ONA VILOYATI FARG'ONA TUMANI BO'LIMI

Электрон рақамли имзо орқали тасдиқланган, ҳужжат коди: ZE85786885

# YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUJJATLARNING QONUN HUJJATLARIGA MUVOFIQLIGI TO'G'RISIDAGI HUQUQIY XULOSA
## №ZE85786885

1. Loyihaning turi: Shartnoma

2. Loyihaning nomi: Siqilgan tabiy gaz yetkazib berish to'g'risida.

3. Loyiha ishlab chiquvchisi va kiritilgan sana haqidagi ma'lumot:

Farg`ona tuman SEO va JS bo'limi tomonidan 2022-yil 5-yanvar kuni ishlab chiqilib, dasturga kiritilgan.

Yuqoridagilarni inobatga olib, huquqiy ekspertizadan o'tkazish natijalariga ko'ra

**XULOSA:**

Loyiha amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan va uni qabul qilish maqsadga muvofiq.

**Yuridik xizmat ko'rsatish markazi bosh yuriskonsulti:** **SH.Adashaliyev**

2022-yil 5-yanvar

**4.**